ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

# HOJI MUIN SHE'RIYATIDA MA'RIFAT TALQINI

**Hayitboyeva Zulayho**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Filologiya fakulteti, 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23086711

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada taniqli jadid ma'rifatiparvari Hoji Muin Shukrullo o'g'li she'riyatida ilm-fan,ma'rifat g'oyalari va shoirning jaholatga qarshi kurashi va yoshlarni ilm egallashga chorlashi tadqiq etiladi. "Guldastayi adabiyot" to'plamidagi she'rlarini tahlil qilish orqali jadidchilik harakatining milliy yuksalishdagi o'rni ko'rsatiladi.
**Kalit so'zlar:** Hoji Muin, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, "Gulastayi adabiyot", jaholat, milliy uyg'onish, ilm-fan, she'riyat.

**Abstract.** This article examines the ideas of science and enlightenment in the poetry of the prominent Jadid enlightener Hoji Muin Shukrullo, son as well as the poet's struggle against ignorance and his call for the younger generation to acquire knowledge. Through an analysis of the poems included in the collection Guldastayi Adabiyot, the role of the Jadid movement in national awakening and social progress is revealed.
**Key words:** Hoji Muin; Jadidism; Enlightenment; Guldastayi Adabiyot; Ignorance; National Awakening; Science and Education; Poetry.

## KIRISH

XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy uyg'onish jarayoni jadidchilik harakati bilan chambarchas bog'liqdir. Jadidlar xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-fan va ma'rifat orqali jamiyatni taraqqiy ettirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganlar. Bu harakat adabiyot, matbuot va ta'lim sohalarida tub o'zgrishlarga sabab bo'ldi.

Ana shunday ma'rifatparvar jadidlarning eng faol vakillaridan biri Hoji Muin ibn Shukrullo Samarqandiydir. U 1883-yilda Samarqand shahrining Ruhobod mahallasida dunyoga kelgan. Ota-onasidan erta ayrilgan Hoji Muin bobosi Mirsaid Sharif o'g'li tarbiyasida qoladi. Bu davrda uning xat-savodi chiqib bo'lgan, bobosi tarbiyasida arab tili qoidalarini va diniy ilmlarni o'rganadi. O'z davrining taniqli ulamolaridan bo'lgan Saidahmad Vasliy bilan tanishganidan keyin bilimlari mukammallashib, she'riyatga muhabbati oshadi va shu bilan birga o'z davrining ma'rifatparvarlari davrasiga kiradi. Ana shu yili Vasliyning uyida Mahmudxo'ja Behbudiy bilan tanishuvi uning hayotida yangi davrni boshlab berdi.

Ayniqsa, Behbudiyning "Muxtasari jo'g'rofiyayi umumiy" nomli asari Hoji Muinda chuqur taassurot qoldiradi, shu tariqa, uni o'ziga ustoz deb biladi va uning izdoshiga aylanadi. Behbudiy boshchiligidagi Samarqand ma'rifatparvarlari ta'sirida taraqqiyparvar inson bo'lib shakllangan Hoji Muin o'z zamondoshlari orasida, eng avvalo, "usuli jadid" maktabining muallimi sifatida taniladi. Boshqa jadidlar kabi Hoji Muin ham, o'z hisobidan "usuli jadid" maktabini ochadi va maktab

yoshlarga dunyoviy va diniy bilimlarni uyg'unlikda o'rgatishni maqsad qilgan.Hoji Muinning ijodi serqirra bo'lib, she'riyatdan tashqari publitsistika va dramaturgiyada ham samarali mehnat qilgan. Uning "Oyna" jurnali va "Samarqand" gazetasidagi faoliyati millat dardini yoritishda asosiy manba bo'lgan. Shoir yoshlar tarbiyasiga oid darsliklar, kitoblar yaratadi. Shuningdek, "Eski-maktab yangi maktab", "Mazluma xotin", "Boy ila xizmatkor", "Ko'knori" kabi sahna asarlari bilan jadid teatrining shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan. Shoirning "Guldastayi adabiyot" (1914) to'plami shoir ma'rifiy she'riyatining cho'qqisidir.Hoji Muin "mehriy" "nahif" (ojiz) taxalluslari bilan jamiyatdagi illatlarni hajv qilib maqola, she'rlar yozgan.

Shoir she'riyatida, asosan, xalqni ongini uyg'otish, zulm va jaholatga qarshi kurash, ilmli, ma'rifatli avlodlarni tarbiyalash kabi g'oyalar ilgari surilgan. Shoirning "Guldastayi adabiyot" to'plami o'sha davr jaded she'riyatining ijtimoiy yo'nalishini belgilab bergan muhim manba sanaladi. Kirgan she'rlari sanoqli bo'lsada, uning mavzu ko'lami va insonga bera oladigan ma'naviy va ma'rifiy jihatlari talaygina. Masalan, shoir qalamiga mansub quyidagi she'rga nazar tashlaylik:

O'qung, ey o'g'lonlar,ilm-fan asbobini izlang,
Ki, millat dardiga darmon o'lur ilm ila fan yak-yak.

Shoirning she'rlari markazida ,asosan, o'git pand-nasihat turadi.Mazkur misralarda yosh avlodga to'g'ridan to'g'ri murojaatlar qiladi.Masalan, "o'qung", "izlang", "ishlang" kabi undovlar bilan yoshlarni ilm olishga chorlaydi. Hoji Muin "o'g'lonlar" deb murojaat qilganda faqat bolalarni emas, butun millatning kelajagini nazarda tutmoqda. Ilm-fanni millatning najoti, jaholatni esa jamiyatning asosiy illati sifatida baholaydi. Shoir bu misrada jadidcha ma'rifatparvarlik g'oyalarini sodda, publitsisik ohangda ifoda etgan va quyidagi misralari orqali ilmni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida tadqiq etadi. Shoir ijodining boshqa namunalari ham shu g'oyaviy yo'nalish bilan xarakterlanadi.

Ay qalam, haq yo'lida bo'l to'g'ri,

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot materiali sifatida Hoji Muinning "Guldastayi adabiyot" to'plamidagi she'riy namunalar hamda shoirning "Tanlangan asarlar" nashrida berilgan materiallardan foydalanildi. Tahlilda matnning mazmuniy va badiiy xususiyatlarini ochib berish, she'rlardagi ma'rifiy-axloqiy g'oyalarni aniqlash hamda ilm–jaholat, halollik–poraxo'rlik kabi qarama-qarshi tushunchalarni qiyoslash usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, murojaat, undov, kinoya, istehzo va tazod kabi badiiy vositalarning g'oyaviy vazifasi matn kontekstida tahlil qilindi.

**NATIJALAR**

Egrilik aylama, bo'lma o'g'ri.
Ay qalam, to'g'rini egri yozma,
Aldanib oqchaga yo'ldan ozma.

Mazkur she'r Hoji Muin ijodidagi axloqiy-ma'rifiy nasihat ruhini yaqqol aks ettiradi. Shoir bu she'rida "ay qalam"deb murojaat qilish orqali ijodkorning mas'uliyatini eslatadi. "Haq yo'lida bo'l to'g'ri" misrasi orqali yozuvchi, ziyolilarni haqiqatdan chekinmaslikka, yolg'on va poraxo'rlikdan yiroq bo'lishga davat etadi. Jadidlar uchun qalam millatni uyg'otuvchi qurol bo'lgan. Shu bois, shoir "qalam"ni noto'g'ri ishlatish millatga xiyonat qilish bilan barobar ekanini uqtiradi."O'gri" va

“oqcha” so’zlari esa moddiy manfaat evaziga haqiqatni buzish holatlarini ifodalagan. She’r bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan bo’lib, ijodkor va ziyolilar uchun ma’naviy-axloqiy mezon vazifasini bajaradi. She’r juda sodda va xalqchil uslubda yozilgan. Shoirning maqsadi oddiy xalqqa insoniy fazilatlarni fazilatlarni tushunarli tarzda yetkazish.

O’qung, ilm o’rganing, ey ahli millat,
Najot topmast jaholatda bu ummat.

Yuqoridagi misrada shoir ilmni millatni qutqaruvchi asosiy kuch sifatida talqin qiladi va millatni ilm o’rganishga chorlaydi. Hoji Muin jaholatni faqat ilmsizlik,savodsizlik sababi deb emas,balki millatni turg’unligi, yangilikka intimasligi deb, ko’rsatadi. Hoji Muinning ushbu misralari badiiy jihatdan sodda bo’lsada, ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. O’quvchini o’z g’oyalarini aniq yetkazish uchun she’riy san’atlardan ham yetralicha fodalangan.Misol uchun “ilm” va “jaholat” so’zlari tazod (bir biriga zid) holda qo’yadi. Birinchi misrada “ey ahli millat” deb xalqqa xitob qiladi. Bu o’quvchida vatan oldidagi mas’uliyatni yanada oshiradi. “Jaholat” so’zi orqali istiora (ma’no ko’chishi) yuzaga kelgan va “jaholat” bu joyda shunchaki, biimsizlik emas, balki najot topmaskikka sabab bo’ladigan bir botqoqlik kabi tasvirlagan.

Shoirning she’riyati ko’p hollarda uing jurnalisti faoliyati bila ham bog’lanib ketadi. U voqea-hodisalarga darhol munosabat bildiradi va ijtmoiy illatalarni ochiqdan ochiq tanqid qiladi. Quyidagi she’rga diqqat qilaylik:

Ishni bitkazib ketay desang pora ber,
Murodingga yetay desang, pora ber.
O’zim oqman ,qoralarni oqlayman,
**MUHOKAMA**
Meni rozi etay desang,pora ber.

Shoirning “pora ber” she’ri jadid adabiyotiga xos bo’lgan adabiy-tanqidiy ruhda yozilgan bo’lib, xx asar boshlarida jamiyatda keng tarqalgan poraxo’rlik illatini keskin tanqid ostiga olinadi. Mazkur she’r orqali poraxo’rlik jamiyatning,ma’naviy tanazzuliga olib keluvchi illat sifatida talqin qilinadi. Shoirning asosiy go’yasi poraxo’rlikning odatiy holga aylanib borayotgani, adolat va halollik tushunchalari keyingi o’ringa tushib borayotganini ochiqchasiga fosh etib,o’quvchini undan voz kechishga undaydi. She’rda lirik qahramon tilidagi kinoyaviy ohang pora berishga majbur bo’layotgan insonlarning ruhiy holatini ochib berishga harakat qiladi. Bu orali shoir oddiy xalqning ruhiy holaini badiiy jihatdan umumlashtiradi. Shoir porani faqat bitta shaxsning xatti-harakatlari sifatida emas, balki butun ijtimoiy muhitni qamrab olgan illat sifatida talqin qiladi. Badiiy san’atlar jihatidan she’rda knoya va istehzo asosiy vosita sifatida namoyon bo’lib, halollik va poraxo’rlik o’rtasidagi qarama-qarshilik tazod san’ati orqali ifodalanib ,asarnig g’oyaviy yo’nalishin yanda aniqlashtirgan. Shu jihatdan, mazkur she’r o’z davri uchun dolzarb bo’lishi bilan birga, bugungi kun nuqtayi nazaridan ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

Umuman olganda, Hoji Muinning she’riyatida ma’rifiy va axloqiy yo’nalishlar ustuvor bo’lib, yosh avlodni tarbiyalash, jamiyatni ma’naviy uyg’otish va xalqni milliy ongini uyg’otishga,adolat va halollikka chaqiradi va jaholat ,poraxo’rlik kabi illatlarni tanqid qiladi. Hoji Muinning she’rlari oddiy xalq tilida, soda va ta’sirchan ifodalar bilan yozilgan bo’lib, kinoya va undovlar orqali g’oyalar yanada ta’sirchan ifodalanib o’quvchini o’ylashga ,fikrlashga undaydi. Shuningdek, shoirning

dramaturgiya va jurnalistik faoliyati ham ma’rifiy ruh bilan boyitilgan bo’lib, u voqea hodisalarga tezkor munosabat bildirgan va jamiyadagi adolatsizliklarni fosh etgan. Uning “guldastayi adabiyot” to’plami esa, o’sha davr jadid she’riyatning ijtimoiy yo’nalishini belgilab beruvchi muhim manba hisoblanadi.

2. Hoji Muin Shukrullo. (1914). Guldastayi adabiyot. Samarqand.
3. Mahmudxo‘ja Behbudi va Hoji Muin o‘rtasidagi maktublar (arxiv manbasi). Toshkent.
4. https://kh-davron.uz/

**XULOSA**

Umuman olganda, Hoji Muin she’riyatida ma’rifiy va axloqiy yo‘nalishlar ustuvor bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalash, jamiyatni ma’naviy uyg‘otish va xalqning milliy ongini yuksaltirish, adolat va halollikka chaqirish hamda jaholat va poraxo‘rlik kabi illatlarni tanqid qilish g‘oyalari ilgari suriladi. Shoirning sodda va ta’sirchan ifoda usuli, murojaat, undov, kinoya, istehzo va tazoddan foydalanishi bu g‘oyalarning badiiy ta’sirini kuchaytiradi. “Guldastayi adabiyot” to‘plami Hoji Muin ma’rifiy she’riyatining muhim manbalaridan biri sifatida uning jadidchilik ruhidagi qarashlarini anglashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
2. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. B. Do‘stqorayev, N. Namozova. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
3. Hoji Muin Shukrullo. Guldastayi adabiyot. – Samarqand, 1914.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Hoji Muin o‘rtasidagi maktublar (arxiv manbasi). – Toshkent.
5. Hoji Muin materiallari. Kh-davron.uz.